

"LAYLI VA MAJNUN" QISSASI AKS ETGAN DASTLABKI MANBALAR

Maftuna Abdurahmonovna TURDIYEVA

Tayanch doktorant

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

PRIMARY SOURCES REFLECTING THE HISTORY OF "LAYLI AND MAJNUN"

Maftuna Abdurahmonovna TURDIYEVA

PhD student

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Tashkent, Uzbekistan

ПЕРВОИСТОЧНИКИ, ОТРАЖАЮЩИЕ ИСТОРИЮ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

Мафтуна Абдурахмоновна ТУРДИЕВА

Докторант

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Ташкент, Узбекистан maftuna1991turd@gmail.com

UDC (УО'К, УДК): 821.512.133

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Turdiyeva M.A. "Layli va Majnun" Qissasi aks etgan dastlabki manbalar.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1. — B. 245-254.

<https://doi.org/10.36078/1710323112>

Received: January 25, 2024

Accepted: February 17, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. Mumtoz adabiyotimizda mayjud muayyan asarlarning syujeti, obrazlari o'z tarixiga ega va ular kelib chiqishiga ko'ra bir necha asr ilgarigi davrlarga borib tutashadi. Bunday durdona asarlarga asos bo'lgan voqeа, rivoyatlar badiiy asar libosiga o'ralguniga qadar turli talqin va turli shakllardagi manbalarda mayjud bo'lsa-da, o'zining kuchli romantizmi hamda o'lmas tuyg'ularni tarannum etishi bilan kitobxonni mahliyo etaveradi. Bu esa mahoratlari ijodkorlarni turli talqindagi o'sha go'zal qissa yo rivoyatni muhtasham badiiy asarga aylantirishiga sabab bo'ladi. Shunday asarlardan biri "Layli va Majnun" qissasidir. Dunyo adabiyotidagi eng g'amgin qissalardan biri bo'lgan bu asar o'nlab yozuvchilar, xalq ijodkorlari tomonidan qayta-qayta ishlangan, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari orasida nihoyatda keng tarqalgandir. Ushbu mavzu ko'p asrlik murakkab tarixga ega. Uning kurtaklari Krachkovskiy ta'kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. U dastlab arablar o'rtasida yuzaga kelgan qadimiylar tarqoq manbalarda o'z ifodasini topgan. Manbalarda bu qissaning dastlabki turli versiyalari mavjuddir. Maqolada "Layli va Majnun" qissasi aks etgan ilk manbalar, shuningdek, bu qissa haqida keng ko'lamli ma'lumot beradigan kitob — Abul Faraj Isfahoniying "Qo'shiqlar kitobi" dagi Qays ibn Mulavvah — Majnun hamda uning she'rlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sharq mumtoz adabiyoti; Krachkovskiy; Abul Faraj Isfahoni; rivoyat; genezis; sujet; Qays; Majnun; obraz.

Abstract. The subject and characters of certain works have a historical significance in the history of literature. There are various interpretations and sources that have influenced these classic works, since they have already transformed into literary masterpieces. The skillful creators transform the beautiful story or narrative into a magnificent work of art in various interpretations. One of these works is the story of "Layla and Majnun." It is one of the sad stories created in world literature which has been written by dozens of authors and

folk artists, has finally spread widely among the peoples of the Near and Middle East. This epic has a complex history spanning many centuries. As Krachkovskiy emphasized, its background goes to the second half of the 7th century. It first appeared in ancient Arabic manuscripts that emerged among the Arabs. There are different versions of this story, which can be found in some sources. The study deals with the first sources that depicted the story of "Layla and Majnun," as well as the book that provides extensive information about this story – Qays ibn Mulavvah – Majnun in Abul Faraj Isfakhani's "Book of songs", and Majnun's poems.

Keywords: Oriental classical literature; Krachkovskiy; Abul Faraj Isfakhani; narrative; genesis; sujet; Qays; Majnun; image.

Аннотация. В истории литературы существуют произведения, истоки которых уходят в глубь веков. И пусть история, лежащая в основе таких шедевров, имеет разные трактовки и источники в разных формах, пока повествование не облачится в одеяние художественного произведения, оно очарует читателя своим романтизмом и прославлением бессмертных чувств. И это творчество является причиной того, что искусные художники превращают красивую историю или повествование в великолепное произведение искусства в различных интерпретациях. Одним из таких произведений является повесть «Лейли и Меджнун», которая является одной из самых горестных историй, созданных в мировой литературе. Она повторялась десятками писателей и народными сказителями, пользуется огромной популярностью у народов Ближнего и Среднего Востока. Этот эпос насчитывал века, имеет сложную историю. По И. Ю. Крачковскому, корни её восходят ко второй половине VII века. Впервые этот сюжет появился в древних разрозненных арабских источниках, в которых встречаются разные версии этой истории. В статье анализируются первоисточники сюжета «Лейли и Меджнун», а также книга, дающая обширные сведения об истории Кайса ибн Мулаввы (Меджнуна) и его стихах, «Книга песен» Абуль Фараджа Исфахани.

Ключевые слова: восточная классическая литература; Крачковский; Абуль Фарадж Исфахани; повествование; генезис; сюжет; Кайс; Меджнун; образ.

Kirish

Ko‘p zamonlardan buyon asrlar osha kitobxonlar va adabiyotshunoslar e’tibori va qiziqishlari, diqqati markazida bo‘lgan muhtasham “Layli va Majnun” dostoni o‘zining mahzun ishq qissasi ekanligi bilan bugungi kungacha ko‘pchilikning e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Majnun obrazi Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan mashhur obrazlardan biri va u adabiyotimiz tarixida o‘lmas obrazlardan biriga aylanib ulgurgan. Majnunning Sharq adabiyotida paydo bo‘lishi haqida shoir va olim Maqsud Shayxzoda shunday degan edi: “Navoiy “Xamsa”siga kirgan dostonlarning sujetlari Yaqin Sharqning yozuv poeziyasiga kirmasdan oldin turli xalqlarning folklorida yuritilgan chiroylilik ertak, afsona, rivoyatlardan iborat edilar. O‘zi marvlik bo‘lib, Bag‘dodda yashagan Ibn Qutaybaning (IX asr) “Kitob ush-she’r va shuar” (“She’r va shoirlar haqida kitob”) ham al-Isfahoniying (X asr) “Kitob ul-Ag‘oniy”da berilgan ma’lumotga qarab, Majnun obrazining yozuv adabiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratilmaganini o‘ylash mumkindir”

(10, 23). Layli va Majnun haqida arablarning o‘zlari badiiy asar yaratmaganlar, lekin manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu romantik sujetning unsurlari ulardan kelib chiqadi (8, 294).

Asosiy qism

Majnun haqida ma’lumot olish mumkin bo‘lgan qadimiy manbalar anchagini. Ulardagi ma’lumotlar sujet hamda qahramonlarning tarixiy shaxs ekanligi masalasi nuqtayi nazaridan bir-biridan ancha farq qiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, Majnun shaxsini o‘rganishga oid tadqiqotlar mavjud manbalarda Layli obraziga e’tiborning passivligi kuzatiladi. Bu masalaga Toshpo‘lat Ahmedov ham o‘z dissertatsiyasida e’tibor qaratib, shunday deb yozadi: “Layli obrazi manbalarda katta rol o‘ynamaydi. U faqat u yoki bu g‘azalning paydo bo‘lishiga sababchi, ilhom uyg‘otuvchi vositadir, xolos. Shuning uchun Layli ularda juda passiv, uning harakati va his-tuyg‘ulari ko‘rinmaydigan darajada gavdalantirilgan (2, 23). Boshqa tomonidan olib qaralsa, ma’lumki, mumtoz sharq adabiyoti an'analariga muvofiq ayollar obrazi tasvirlanganda ularning his-tuyg‘ulariga deyarli e’tibor qaratilmaydi. Ular faqat hijron o‘tiga tashlovchi zolim ma’shuqa sifatida tasavvur etiladi. Balki shu nuqtayi nazaridan Layli timsoli uning o‘zi aloqador bo‘lgan qissalarda keyingi planlarda aks etgandir. Bu qissa dastlab xalq og‘zaki ijodida rivojlanib, rivoyat, afsona shaklida, keyinchalik esa turli to‘plamlarda, nihoyat yirik xamsanavislar tomonidan doston sifatida maydonga kelgach, Layli obrazi ham yirik planda ko‘rina boshlangan. Xususan, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda ma’shuqaning ham oshiq bilan bir paytda ishq o‘ti samumidan azob chekishi za’faron ranglarga chulg‘ab tasvirlangan.

Majnunning tarixiy shaxs ekanligi e’tirof etilgan manbalarda uning asl ismi hamda u mansub bo‘lgan qabila nomi yuzasidan fikrlar turlicha. Qadim arab olimlarining o‘zlarida Majnunning tarixiyligi haqidagi savolga yagona javob yo‘q edi. Haqiqiy javobni ularning tasdiq yo‘inkorlaridan emas, balki Majnun haqidagi hikoyalar va unga nisbat berilgan she’rlar tahvilidan izlash kerak. Horun ar-Rashidning zamondoshi Ibrohim ibn Sad az-Zuhriyning aytishicha, bir kuni uzriylar qabilasidan bir kishi uning oldiga keladi. Ishq va oshiqlar haqida suhbat boshlanib, Ibrohim undan: “Kimning qalbi yumshoqroq, siznikimi yoki amir qabilasining qalbimi?” deb so‘radi. Bunga haligi kishi shunday javob berdi: “Bizning qalbimiz hammanikidan mayinroq, lekin amir qabilasi bizni o‘zlarining Majnunlari bilan yengdilar” (4, 598). Bundan Majnunning amir qabilasidan bo‘lganligi yanada ravshanlashadi. Bundan tashqari, bani amir qabilasi vakillaridan qabiladoshlari Majnun haqida so‘rashganida ular orasida bunday zaif qalblarning mavjudligini inkor etishlarini aytishgan (ular uchun oralarida shunday qalbi zaif bir qabiladoshi borligi uyatli bo‘lgan), lekin ular Majnun haqida yaxshi bilishgan. Hatto qabiladoshlaridan biri Majnun va Layli muhabbatining boshlanishi haqida hikoya ham qilib bergen. Majnun qissasini umaviylar tomonidan o‘ylab topilgan degan qarash ham mavjud. Majnunni umaviylar xonadoniga mansub deb ko‘rsatadigan manbalar (Ibn al-Qalbiy) ehtimol mana shu inkor fikrlarning natijasi bo‘lishi mumkin. Bunday mulohazalar Majnunning voqelikda mavjud bo‘lganini to‘liq e’tirof etadi.

Sharq adabiyotida mazkur dostoniga asos bo‘lgan qissa tarixda bo‘lganmi, doston qahramonlari Layli va Majnun tarixiy shaxsmi, uydirmami degan savol ko‘p muhokama qilinadi. Majnunning borligi masalasi qanday munozarali bo‘lsa, unga nisbat berilgan misralar muallifl ekanligi masalasi ham shunchalar bahsli. Biroq bu she’rlar asosida Majnun haqidagi rivoyatlar shakllana boshlangani ko‘rinib turibdi (7, 65). Filologlar, tarixchilar va geograflar bu mavzu haqida nisbatan kam ma’lumot bergenlari holda filologlar Majnun nomi bilan bog‘liq misralarga ko‘proq e’tibor qaratadilar. Yana shunisi muhimki, aynan Majnunga nisbat berilgan she’rlar u haqidagi hikoyalar taraqqiyotining bir yo‘nalishini oshib beradi. Bu she’rlar ruhiyatning tavsif-u tasvirlari bois Majnun haqidagi qissani konkretlashtiradi. Mazkur she’rlardagi ma’lumotlar bu qissaga asos bo‘lgan voqealarga ma’lum ma’noda ishora qiladi. Shuni ta’kidlash zarurki, arab manbalarida asosiy e’tibor bu qissaning mukammalligiga emas, balki Majnun faoliyatiga qaratilgan. Chunki bu qissa Majnunning she’rlari asosida vujudga kelgan va unda Majnunning hayoti, his-tuyg‘ulari, tabiatи va kishilarga munosabati o‘z ifodasini topgan. Ularda, birinchidan, diqqat markazida Majnun she’rlari turgan bo‘lsa, ikkinchidan, uning obrazni turgan (2, 21). Layli otasiga Majnun haqida xabar bergan kishilar, unga shunday deyishadi:

*...tab ’i hush-u, nazmi ham ravondur,
Andoqki sangi dog’i ayondur.
Nazmida bori bir ism mazkur,
Kim ermas zikri bizga maqdur.*

Demak, Majnunning es-hushi joyida, nazmi ham ravon. Ammo she’rlarida doimo bir ismgina tilga olinadi. Lekin bu ismni xabarchi ayta olmaydi. Navoiy bu yerda muslimon olamida mavjud bir qoida orqali xabarchiga Laylining otini aytdirmaydi. Ayol kishining nomini har kim tilga olaverishi mumkin emas (6, 57).

“O‘rta asrlar arab she’riyati” (9, 767) to‘plamidagi Majnun — Qays ibn Mulavvah she’rlarida ushbu mazmundagi poetik ma’lumotlar uchraydi:

- menga Layli bilan uchrashish ta’qiqlangan, lekin men uning oldiga boraman;
- o‘z uyidan qochish dahshatli gunoh;
- menga necha marta aytishdi uni unut deb. Men ularga javob beraman: “Mening yuragim mening sevgilimning uyi bo‘lgan yerkarga intiladi”;
- ishq zindonida qiynalaman;
- men uning oldiga boraman, garchi turli mish-mishlar yurgan bo‘lsa-da. Unga yo‘lni odamlar ham ruhlar ham to‘solmaydi;
- agar odamlarga sevgidan o‘lishi mumkin bo‘lsa, men shundan o‘laman;
- sevgilimsiz aqlim va xotirjamligimdan mahrumman;
- men gunoh qildim, Rabbim, va hamma narsa senga oshkor bo‘ldi. Makkaga borib men sening oldingda tavba qilaman. Rahm-shafqat topaman. Ammo, Xudoyim, men sening oldingda ishqdan tavba qilmayman, sevganimdan voz kechmayman. Men unga abadiy sodiqman;

— ta’nalaringizdan holimga voy, zolim suhbatdosh;

— agar sizga (Layliga) bo‘lgan ishtiyoq xato bo‘lsa, agar bizning kunlarda qarindoshlar oldida shu shirin gunoh bo‘lsa, men gunohimdan tavba qilmayman.

Bu ma’lumotlardan Majnun she’rlarining shu qissa sujetiga asos bo‘lganligini katta ehtimol bilan aytishimiz mumkin.

Sharq xalqlari orasida qadimdan hikoya qilish an’anasi mavjud. Ehtimol bu sujetning tarixiy ildizlari bevosita ushbu an’ana bilan bog‘liqdir. Bu sujetning paydo bo‘lishi uchun asosiy material bo‘lib xizmat qilgan turli rivoyatlarning kelib chiqishiga nimadir hayotiy sabab bo‘lganligi aniq. Chunki har qanday afsona, rivoyat zamirida ma’lum haqiqat yotadi (4, 28). Majnun nomi bilan bog‘liq she’r va rivoyatlar nafaqat Arabistonda, balki Yaqin va O‘rta Sharqning boshqa mintaqalarida, asosan, X asrda keng tarqaldi. Xronologik nuqtayi nazardan yondoshadigan bo‘lsak, qissa voqealari VII asr oxirida sodir bo‘lganligi aytildi, Majnun she’rlari esa XI–XII asrlarda to‘plangan.

Abul Faraj al-Isfahoni turli rivoyatlarga asoslanib, amir qabilasiga mansub bir yigitning o‘z amakisi qiziga oshiq bo‘lib mahzun she’rlar yozganini aytadi. Ismini sir saqlash uchun u she’rlarida Majnun taxallusini qo‘llaydi. Al-Volibiyning (XII asr) “Devoni Majnun”i esa Majnunga nisbat berilgan she’rlar to‘plamidir. Bu kitob Sharqda juda mashhur bo‘lgan va ko‘plab nashrlardan o‘tgan. Yaqin-yaqingacha Majnun shuhrati faqat arablarda emas, balki Eron mamlakatlarida ham shunga asoslangan va ko‘p qo‘lyozmalarda shu xususda so‘z boradi (7, 588). Volibiy o‘z asarida Isfahoniyning “Qo‘schiqlar kitobi”dan foydalanganini sezish mumkin. Sharqshunos I. Krachkovskiy tadqiqiga ko‘ra, Al-Volibiyning mazkur devonida arab majnunlari tarixini tushunishdan ko‘ra chalkashtirish ko‘proq, ya’ni IX asr — Abbosiylar davrida devondagi she’rlar misralari turli manbalardan she’rlar olib qo’shib yuborilgani oqibatida tasodifan almashtirib yuborilganlik holatlari uchraydi. Chunki o‘sha paytlarda bir urug‘da kamida ikkita Majnun bo‘lgan. Arabistonning boshqa qabilalarida ham Majnun taxallusli shoirlar bo‘lgan. Majnun taxallusi o‘z haqiqiy ma’nosida telba, aqldan ozgan, ma’nolarini bildirishi bilan birga “ilhomlantiruvchi” degan ma’nosi bilan ham shoirlarga juda mos kelgan, bu atamadan foydalanish qadimgi Arabistonda keng tarqagan edi. Ammo ba’zi amir qabilasi vakillarining ta’kidlashicha, ularda faqat bitta Majnun bo‘lgan. Ba’zi chalkashliklariga qaramay, Volibiyning bu kitobi Majnunga nisbat berilgan she’rlar to‘planganligi tufayli Isfahoniyning “Qo‘schiqlar kitobi” bilan birgalikda qimmatli ahamiyatga ega.

I. Krachkovskiyning “Arab adabiyotidagi Majnun va Layli haqidagi qissaning ilk tarixi” (Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе) deb nomlangan maqolasi bu dostonning genezisiga doir ilk tadqiqot bo‘lsa, Bertelsning bu boradagi ishida asosan, “Layli va Majnun” dostoni sujeti hamda Nizomiy va Navoiyning ushbu nomdagi asarlari qiyoslanadi. Krachkovskiy tadqiqotidagi doston qahramonlari, sujeti haqida ma’lumot beruvchi quyidagi manbalar, garchi mazkur qissa voqealari sodir bo‘lgan VII asrlarga yaqin vaqt oralig‘iga mansub bo‘lsada, ularda bir-biridan ancha farq qiladigan ma’lumotlarni ko‘rish mumkin.

1. **Avon ibn al-Hakam al-Qalbiy** (764-yili vafot etgan) Majnunning ismi Qays ibn Mulavvah bo‘lib, otasi o‘g‘lining jinniligidan oldin vafot etgani, Majnunning otasi o‘limi haqida aytgan misralarni keltiradi.

2. **Hishom al-Qalbiy** (819-yili vafot etgan). Mazkur ikki muallif — Avon ibn al-Qalbiy va Hishom al-Qalbiy ham Majnunni tarixiy shaxs emas, uning nomi majoziy deb aytadilar. Uning taxallusni ostidagi she’rlar esa yaqin qarindoshlaridan birining qiziga oshiq bo‘lgan umaviy xonodoniga mansub yigitning she’rlari, u o‘z nomini oshkor etmaslik uchun shu taxallusni qo‘llagan, deb hisoblaydilar. Avon ibn Qalbiy Majnunni umaviy xonodoniga mansub oshiq yigit bilan chalkashtirishiga sabab, u o‘z davrida umaviylar tarafdoi bo‘lgan va “Muoviya va umaviylar tarjimai holi” dab nomlangan umaviylar haqidagi hikoyalarini tuzgan. Ehtimol, bu subyektiv sabab bo‘lishi mumkin.

3. **Ibn Qutayba** (889-yili vafot etgan) esa Majnunni tarixiy shaxs ekanligi, uning Bani amir qabilasidan bo‘lib, asl ismi Qays ibn Mulavvah ekanligini, qabiladoshi Layli degan qizni sevgani, sevgisi haqida mungli she’rlar yozganini o‘zining “Kitob ush-she’r va shuar” asarida keltiradi. Ammo u Majnun qissasini to‘la bir voqeani tashkil eta oladigan, bir-biriga mantiqiy bog‘langan ma’lumotlarning ketma-ket zanjiri sifatida taqdim etishga intilmagan. Masalan, Majnun tarixidagi voqealarning odatiy xronologiyasi unda boshqacharoq: Navfal vositachiligi Majnun va Layli otalarining uchrashuvidan oldin keltirilgan.

4. **Al-Johiz** (IX asr) shunday yozadi: “Odamlar noma’lum muallifning Layli haqida aytilgan bir she’rini ham Majnunga nisbat bermasdan qoldirmadilar”. Bundan ko‘rinadiki, Layli ismi mavjud bo‘lgan ishqiy she’rlar tekshirib o‘tirilmasdan Majnunga tegishli deb hisoblanaverган. Natijada yuqorida ko‘rganimiz Al-Volibiyning “Devoni Majnun”i kabi to‘plamlardagi Majnun she’rlarining originalligiga bir oz shubha uyg‘onadi.

5. **Ibn al-Mo‘taza** (908-yili vafot etgan). Bu ikki arab olimlarining aytishicha, kishilar Layli nomi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha she’rlarni Majnun nomiga nisbat beraverganlar.

6. **Abu Bakr al-Volibiy** (XII asr) tuzgan devon-qissada Majnun haqidagi rivoyatlar ancha takomillashgan. Unda, jumladan, Majnunning o‘limi tasviri orqali bu obraz romantizmi boyitilgan.

7. **Abul Faraj Isfahoni** (897–967) arab she’rshunosi. Uning “Qo‘sishqlar kitobi”ni Qays nomi uchraydigan ilk manbalardan biri deb aytish mumkin. Bu kitob dastlabki arab musiqa san’ati davri haqida, ya’ni VII asr — islomgacha bo‘lgan davrdan to Isfahoni yashagan IX asrgacha bo”lgan vaqt oralig‘ida yashagan shoir va qo‘sishqlilar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Qays haqidagi boshqa rivoyatlar o‘z mazmuni, kompozitsiyasi va boshqa jihatlari bilan bu kitobdagi rivoyat va hikoyalardan katta farq qiladi. Isfahoni yashagan “Qo‘sishqlar kitobi”da Majnun haqida yangi-yangi hikoyalar keltirilgan. U aslida tarixning odatiy xronologiyasiga amal qilmaydi: Majnun hayotining oldingi davrida yuz bergen voqealar ko‘pincha keyingi voqealardan so‘ng keltiriladi, nasabnama va boshqa ma’lumotlar Majnun va uning tarixi voqealari haqidagi xabarlar bilan aralashtirib yuborilgan. Va hech qanday rejasiz kiritilgan. Yetarli miqdordagi ma’lumotlar mavjudligiga qaramay,

Isfahoni ham ularni to‘liq izchil xabarlar zanjiriga aylantirishga intilmaydi (5, 28). Xususan, kitobda Imru ul-Qays hamda Qays ibn Mulavvah degan shoirlar uchun bob ajratilgan. Imru ul-Qays haqidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqib, bu obrazning “Layli va Majnun” qissasiga bog‘liqligi yo‘qligiga guvoh bo‘lamiz.

Imru ul-Qays va uning avlodlari qismida Qays haqidagi hikoyalarni o‘qiyimiz. Unda dastlab Imru ul-Qaysning ota-bobolari, xususan, Hujr ismli hukmdor va uning o‘zi hukmronlik qilgan Asad qabilasi bilan bog‘liq ziddiyatlar hikoya qilinadi. Hujrning ko‘p o‘g‘illari bo‘lib, ularning eng kichisi Imru ul-Qays edi. Aytishlaricha, Hujr bir paytlari Qaysni she‘r yozgani uchun uydan haydab yuborgan va u bilan yashamaslik uchun qasam ichgan. Sababi, o‘sha paytdagi podshohlar she‘riyatdan nafratlanganlar. Bu hikoyalarda biz kutgan, Qaysni Majnun bo‘lishiga sabab bo‘lgan Layli obrazini uchramaydi.

Uyidan haydalgan Imru ul-Qays esa Tayy, Kalb kabi badaviylar qarorgohlarida aylanib yuradi. Imru ul-Qays bu yerda boshqa qabila yoki qarindoshlaridan harbiy kuch olib kelishmovchiliklarni hal qilishga chog‘lanadigan sarkarda, shu voqealar paytida qasidalar, baytlar aytadigan shoir sifatida gavdalandi. Otasi o‘z qabilasidagi bir kishi tomonidan o‘ldirilganini eshitganda ham, u she‘r o‘qib beradi. Qaysning she‘r yozgani yoqmagani uchun otasi undan or qilib uydan haydab yuborishi haqidagi parcha bizga Navoiy dostonidagi Laylining otasi har qayerda Laylini yod etib, telba ahvolidagi Qaysning jununidan nomus qiladigan Layli otasining xatti-harakatlarini eslatadi. Imru ul-Qays otasining o‘ldirilganini eshitgach, otasining qotilidan xun olishga qasam ichadi. Bu parchadan esa Imru ul-Qaysning Bani asad qabilasidan ekanini, ulardagi johiliya davrida, ya’ni VI asrlardagi xun olish kabi ba’zi odatlarni bilih mumkin. Bu bobda Qays haqida bir necha hikoyatlar berilgan. Ulardan Qaysning olivjanob bir zodagon, she’rlar aytadigan shoir ekani anglashiladi. Bunga misol sifatida hikoyalardan birini keltiramiz: Imru ul-Qays uylanish maqsadida ko‘p qizlarga sinash uchun savollar beradi, bu savollariga javob berolmagan qizlarni uchratib, ularga uylanmaslikka qaror qiladi. Bir kuni shu savollariga javob bera olgan bir qizni uchratadi. Va unga uylanadigan bo‘ladi. Qiznikiga sovg‘a sifatida bir qulidan kiyimlar, moy, asal jo‘natadi. Qul yo‘lda haligi narsalarni ochib, ularning sifatiga putur yetkazib qo‘yadi. Kelinnikiga borganda qul o‘zini kuyovman, yo‘lda narsalarimni badaviylar o‘g‘irladi, deb yolg‘on gapiradi. Keyingi safar Imru ul-Qays shu qul bilan birga 100ta tuya olib kelinnikiga yo‘lga chiqadi. Yo‘lda tuyalarni sug‘orayotgan qulga o‘zi ham yordam bermoqchi bo‘lib, quduqqa yaqinlashganda qul uni quduqqa itarib yuboradi. Va keyin qul tuyalarni haydab kelinnikiga boradi. Qiz uning Imru ul-Qays ekaniga shubhalanib, unga ba’zi savollarni beradi. Qiz quldan o‘zi kutganidek javob ololmaydi. Bu orada Imru ul-Qays quduqdan chiqib yetib keladi va qizning bergen savollariga qiz kutgan javoblarni beradi. Haligi qul esa o‘limga hukm qilinadi. Bundan tashqari, bu hikoyalar orasida Qaysning zamondoshi bo‘lgan Navfal haqida ham ma’lumotga duch kelamiz. Navfal bani asad qabilasining qo‘sishin sarkardasi bo‘lib, bu qabila o‘z boshliqlari Hujrga qarshi chiqishadi. Navfal esa o‘zining qo‘smini bilan kasal bo‘lib qolgan otasini ko‘rgani borib, u vafot etgach, yana o‘z qabilasiga qaytayotgan Hujrning karvoniga yo‘lda hujum qiladi.

Isfahoniy bu bobning so‘nggi sahifalarida shunday yozadi: “Men bobom Yahyo ibn Muhammad ibn Savobanining o‘z qo‘li bilan yozgan kitobidan Xalil ibn Ahmadga tayanib rivoyat qilingan quyidagi hikoyani ko‘chirib oldim: Otasi o‘ldirilgandan keyin Hujrning o‘g‘li Imru ul-Qays huzuriga Asad qabilasining turli urug‘laridan bo‘lgan keksa-yu yosh keldi... Imru ul-Qays ular oldiga chopon, etik va boshiga qora tasma o‘ragan holda chiqdi. Arablar faqat motam paytida boshlariga qora bog‘lab qo‘yardilar...” (4, 105). Demak, Isfahoniy o‘z kitobini yozganida arab olimi Xalil ibn Ahmadga (718–792) tayangan. Bu ma’lumotlarni keltirishimizdan maqsad, ba’zi manbalarda Majnunning bani asad qabilasidan ekanligi qayd etiladi. O‘sha manbalarda Isfahoniyning mazkur kitobidagi Imru ul-Qays va Qays ibn Mulavvah haqidagi ma’lumotlarga tayanilib, ularni chalkashtirib yuborish bo‘lgan, bizningcha. Yuqoridagi bobdan esa bu masalaga oydinlik kiritildi. Va bu bobdagagi Imru ul-Qays Majnun emas. Uning she’rlar aytishi, oliyanob kishi ekanligi, Navfal degan harbiy zodagonga zamondosh ekani kabi belgilari uni Majnun deb o‘ylashga biroz turtki beradi, go‘yo. Bu kabi hikoyalardan Majnun — Qaysni qidirish noo‘rin.

Isfahoniy Majnun haqidagi hikoyani shoirning juda bat afsil nasabnomasi bilan boshlaydi. Shoirning tarixiy shaxsligini, payg‘ambarning oilasiga yaqinligini ta’kidlash uchun bu ma’lumotlar zarur bo‘lsa kerak balki (8, 46). Bundan tashqari, mazkur kitob muallifi tarixiy va adabiy yo‘nalishda ta’lim olgan bo‘lib, u alohida ishtiyoq bilan arab nasl-nasabi va tarixiy an’analari bilan shug‘ullangani haqidagi ma’lumotlar uning yuqoridagi izlanishlariga qo‘srimcha mazmun bergen.

Majnun afsonasidagi Navfal obrazi ham tarixiyligi manbalarda qayd etilgan Navfal ibn Musahik al-Amiri, lekin u Majnun kabi amir qabilasidan emas, u tarixchi Tabariy tomonidan Madina qozisi sifatida tilga olinadi. Hukmdor Abd al-Malik tomonidan lavozimidan chetlashtiriladi; biografik lug‘atlardan birida u Madinada sadaqa yig‘ish bilan shug‘ullangani aytildi. Madina masjidida hattoki Umar ibn abu Rabiyning she’riyat ishqibozi va uning she’rlari haqidagi fikrlari so‘ralgan edi. VIII asr boshlarida vafot etgan.

Xulosa

Bunchalik ko‘p sonda tasodifiy bo‘lishi mumkin bo‘lmagan bu ma’lumotlar ketma-ketligining barchasi bizni qiziqtirgan Qays — Majnun VII asr oxirida yashab o‘tgan degan dastlabki xulosaga kelishimizga imkon beradi.

Tarixda ishqiy she’rlar aytgan, zodagon arab qabilasi vakili bo‘lgan, Layli ismli qizni sevgan Qays ismli oshiq Majnun haqidagi tarqoq, hatto bir-birini inkor etadigan manbalar va ularning juda ko‘pligi hamda ba’zi subyektiv munosabatlarning natijasidir. Adabiyotimizdagi durdona “Layli va Majnun” dostonlari esa o‘z mualliflarining ideal oshiq, ishq, ma’shuq haqidagi qarashlari mahsuli, albatta. Shu tufayli ham ular keskin bo‘lmasada, tasvir vositalari, ifoda usuli va g‘oyasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. — T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006. — 317 b.
2. Аҳмедов Т. Алишер Навоийнинг “Лайли ва Мажнун” достони. — Т.: Фан 1970. — 220 б.
3. Жамматова М. “Ранние источники дастана “Лейли и Меджнун” // Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир. Материалы международной тюркологической конференции. — Казань. 2021. — 493 с.
4. Крачковский И.Ю. Том II. Избранные соч. — Москва-Ленинград: Наука, 1956. — 643 с.
5. Куделин А.Б. Арабская литература. — Москва: 2003. — 512 с.
6. Қаюмов А. Ишқ водийсининг чечаклари. — Тошкент: Г. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1985. — 256 р.
7. Маллаев Н. Сўз санъатининг гултожи. — Тошкент: Фан. 1991. — 152 б.
8. Садыхова А.А. “История о Кайсе и Любне в средневековом арабском фольклоре” // Проблемы исторической поэтики. Том 18. — Польша. 2020. — 350 с.
9. Фильшинский И. Арабская поэзия средних веков Том 20. — Москва: Художественная литература. 1975. — 767 с.
10. Шайхзода Мақсуд. Асарлар. 4-том. Ғазал мулкининг султони. — Тошкент: Г. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 372 б.

References

1. Alisher Navoiy, *Layli va Majnun* (Layla and Majnun), Tashkent: G. Gulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2006, 317 p.
2. Ahmedov T., *Alisher Navoiining "Laili va Mazhnun" dostoni* (Alisher Navoi's epic "Layla and Majnun"), Tashkent, Fan 1970, 220 p.
3. Zhammatova M., *Rannie istochniki dastana Leili i Medzhnun, Aktual'nye problemy tyurkologii: Rossiya i tyurko-musul'manskii mir. Materialy mezdunarodnoi tyurkologicheskoi konferentsii* (Actual Problems of Turkology: Russia and the Turko-Muslim World), Materials of International Turkological Conference, Kazan', 2021, 493 p.
4. Krachkovskii I.Yu. *Tom II. Izbrannye soch* (Volume II. Selected Works), Moscow-Leningrad: Nauka, 1956, 643 p.
5. Kudelin A.B., *Arabskaya literatura* (Arabic Literature), Moscow, 2003, 512 p.
6. Kayumov A., *Ishk vodiisining chechaklari* (Smallpox of Love Valley), Tashkent: G. Gulom nomidagi Adabiet va san“at nashrieti, 1985, 256 p.
7. Mallaev N., *Suz san"atining gultozhi* (The Flower of the Art of Words), Tashkent: Fan. 1991, 152 p.
8. Sadykhova A.A., *Istoriya o Kaise i Lyubne v srednevekovom arabskom fol'klore, Problemy istoricheskoi poetiki* (The story of Kays and Lubna in middle ages arab folklore, Problems of historical poetics. Volume 18), Pol'sha, 2020, 350 p.

9. Fil'shtinskii I., *Arabskaya poeziya srednikh vekov* (Arabic poetry of the middle ages godly literature. Volume 20), Moscow: Khudozhestvennaya literatura, 1975, 767 p.

10. Shaikhzoda Maksud. *Asarlar. 4-tom. Gazal mulkining sultoni* (Works. 4th vol., The sultan of ghazal estate), Tashkent: G.Gulom nomidagi Adabiet va san"at nashrieti, 1972, 372 p.